



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

Bandboshi - Qorako'l tumanidagi mahalla nomi. Band – “*qo'rg'on, to'g'on, damba, suv ombori*”. O'zbekistonda joy nomlari tarkibida uchraydigan irrigatsion atama. Tog' daralariga qurilgan qadimiy gidrotexnik inshoot *band* deyilgan. Misol uchun, Jom qishlog'i yaqinidagi suv omborining to'g'oni (12 asr) *G'ishtband*, Eskioqchob qishlog'i yaqinida Buxoro xoni Abdullaxon (1557–1598) tomonidan qurdirilgan *Abdullaxon bandi* shular sirasidandir. Daryolarga qurilgan to'g'on ham *band* deya nomlangan (O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati, 8-bet)

Bangi/Bangilar – Olot tumanidagi qishloq nomi. Bangilar: 1) nasha chekuvchilar, nasha chekishga o'rganib qolganlar, nashavandlar; 2) umuman giyohga (ko'knori, qoradori va sh.k.ga) o'rgangan odam, giyohvand, ko'knori. Qishloq nomi shu nomdagi o'simlikning borligi asosida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

Barkamollik – Qorako'l tumanidagi mahalla nomi. Mustaqillikdan keyin qo'llangan mazkur so'z “*yetuklik, mukammallik holati, kamolot cho'qqisi*”.

Bichoqchi/Pichoqchi – Qorako'l tumanidagi qishloq shunday nomlangan. *Bichoqchi* so'zi aslida *pichoqchining* dialektal varianti hisoblanib, u “*pichoq tayyorlaydigan usta*” ma'nosini anglatadi. Hozirda Zarafshon daryosining quyi oqimi hududlarida ham *pichoq* so'zi *bichoq* tarzida qo'llaniladi.

Bunyodkor – Olot tumanida mahalla nomi. Mustaqillikdan keyingi yillarda nomlangan ushbu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da shunday izohlangan: “*yaratuvchi, barpo qiluvchi, asos soluvchi*”. Keyingi davr mahsuli sanalgan bu kabi joy nomlari mamlakatimizning ko'pgina hududlarida uchrashini ta'kidlash lozim.

Bo'ribek Chandir – Olot tumandagi aholi punkti nomi. T.Nafasovning fikricha, qadimgi eroniy tillarda *var, vara, vari, bar, bur, buru, buri* so'zlari mavjud bo'lib, u *tevaragi devor bilan o'ralgan turar joy, qo'rg'on* kabi ma'nolarga ega. *Bo'ri* so'zi tovush o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan. “Xona” so'zi “chuqurcha, o'yiqlik” kabi ma'nolariga egadir.

Bo'ston – Olot tumanidagi qishloq nomi. *Bo'ston* odamning mehnat faoliyati natijasida bunyod etilgan obod, serbog', gullagan joy. *Bo'ston* so'zining asl ma'nosidan qat'iy nazar, shu toponim nomli etnonim ham bor. Bir qancha *Bo'ston* deb atalgan joylar o'sha urug' nomidan kelib chiqqan. Shunisi qiziqki, o'zbek urug'larining ko'pchiligi muayyan ma'no anglatadi: *Bo'ston* – etnonim, bo'ston – guliston. Xo'sh, bunday paytda toponimlarni qanday farq qilish kerak? Bizning kuzatishimizga qaraganda, agarda toponim hech qanday qo'shimchasiz birgina o'zakdan iborat bo'lsa, u albatta etnonim bo'ladi (Qorayev, 35-b.)

Bo'ston – bog'-rog'li joy, daraxt ekib obod qilingan manzil, guliston. Marg'ilon atrofida o'zbeklarning bastan urug'i qayd etilgan. Qirg'izlarning ham bastan urug'i bor. Bostan – turkiy qabiladan biri. *Bo'ston* urug'i nomi (etnonim) oykonimga o'tgan.

Dabboqi – Qorako‘l tumanidagi qishloq nomi Forscha *dabbog‘* so‘zi *teri oshlovchi, charmgar* ma’nosiga ega. *Dabbog‘i* – *teri oshlovchi kishi*. Toponimga kasb-kor nomi asos bo‘lgan.

Darg‘ali – Qorako‘l tumanidagi qishloq nomi bo‘lib, *darug‘a* mo‘g‘ulchada *viloyat, shahar, gubernator boshlig‘i* ma’nolarini anglatadi (O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati, 176-b) Hozirgi kunda *kema boshqaruvchisi, rahbar yetakchi, yo‘lboshchi, kapitan* singari ma’nolarga qo‘llanilgan.

Darg‘a – dorug‘a so‘zi asli mo‘g‘ulcha bo‘lib, “boshliq, qo‘mondon” degan ma’noni anglatishi yuqorida qayd qilingan edi. Hozirgi mo‘g‘ul tilida ham darg‘a “rais, boshliq” demakdir. Ba’zilar fikricha, *darg‘a* so‘zi o‘z navbatida, “ezmoq, qismoq” ma’nosidagi daraxt fe’lidan kelib chiqqan. Darg‘a mansabi dastlab Chingizxon hukumdorligi davrida yuzaga kelgan hamda daruxachi (darugachin) tarzida ishlatilgan. Dorg‘a mo‘g‘ullar, temuriylar hamda shayboniylar davrida (14-16-asrlar) viloyat, shahar hokimi sanalgan. Dorg‘a idora qilish hamda soliq undirish bilan ham shug‘ullangan. Dorg‘a mansabi keyingi asrlargacha mavjud bo‘lgan. Chunonchi, Buxoro xonligida dorg‘a soliq yig‘uvchining yordamchisi hisoblangan va har bir viloyatda qancha hosil olishini hisob-kitob qilgan. Xiva xonligida ham dorg‘a oliq-soliq ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan. Bosh dorg‘a *dorg‘aboshi* deb atalgan. Xudoyorxon davrida dorg‘aboshi xonning boshqa mamlakatlarga mol olib chiqadigan sarbonlariga (tuya kashlariga) boshchilik qilgan (O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati, 176-177-b.)

Darg‘a atamasi Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligidagi soliq yig‘uvchisining yordamchisiga, *darg‘aboshi* atamasi esa bosh darg‘ali nisbatan qo‘llangan. *Darg‘a* so‘zi “*kema kapitani*”ni ataganligi ham kuzatiladi (Xiva xonligida).

Suv taqsimlovchi mirob, suv darg‘asi *darg‘ob* (dorg‘anob) deb yuritilgan. Dorg‘alik mansabining boshqa vazifalari ham bo‘lgan. Ba’zan mirshab, bozor hokimi ham dorg‘a deb atalgan. Biron lavozimda turgan mas’ul shaxsni ham dorg‘a deyishgan. Masalan, mashhur tarixchi Xondamir Alisher Navoiyning ukasi Darvishalini “Dorug‘ayi kitobxonayi humoyun”, ya’ni “Qutlug‘ kutubxona mudiri” deb atalgan. Ma’lumki, Darvishali Alisher Navoiy davrida sulton kutubxonasining kitobdori, ya’ni kutubxonachisi bo‘lib xizmat qilgan (Kopaev, 46-47-bet)

Buxoro tumanida ham Darg‘ali nomli qishloq mavjud. Qorako‘l tumanida *Darg‘abog‘i* toponimi bor.

Davlatobod – Olot tumanidagi mahalla nomi bo‘lib, ushbu *Davlatobod* toponimi *davlat* hamda *obod* komponentlari birlashishi natijasida yuzaga kelgan. Apellyativning birinchi qismi *davlat* forscha so‘z hisoblanib, u “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “mamlakat” ma’nosini bildirishi qayd etiladi.

Demak, *Davlatobod* “Obod mamlakat, obod joy, obod yurt” ma’nosini ifodalaydi.

Viloyat hududida davlat soʻzi ishtirokida Davlatboy, Xoʻjadavlat, Davlatobod, Xoʻjadavlat, Davlat Shayx, Xoʻja Davlatbobo kabi toponimlar mavjud.

Denov – Olot tumanidagi qishloq. Respublikamizning deyarli barcha hududlarida uchraydigan bu toponim asosidagi “*deh*” komponenti aslida qadimiy forsha “*dah*” – *oʻlka, yurt, viloyat* tushunchalarini anglatgan va joy nomlari tarkibida *dev, deh, di, de, dek, deg* tarzida saqlanib qolgan: *Dehcha, Denov, Decha, Dihiosiyo, Dehbolo, Debolo, Dekmoran* va hokazo (Adizova, 24-bet).

Qadimgi Chagʻoniyon (miloddan avvalgi VI asr – milodning XVI asri) viloyatining markazi, bosh shahri – Dehinav. Dehinav Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (XV asr) asarida qayd qilingan. Oʻrta asr geograflarining yozishicha, Chagʻoniyon shahristoni aholi koʻpligi va boyligi jihatdan Termizdan ustun turgan, shahri obod, farovon boʻlgan.

Denov fors-tojikcha: *deh+i+nav* yangi qishloq, yangi qurilgan shahar demakdir. *Dehinav* – Shayboniylardan chiqqan Abdullaxon XVI asrning 60-90-yillarida Buxoro hukmroni boʻlgan vaqtlarda bu yerga vaqti-vaqti bilan ovga kelib turgan. Buxorodan 55-60 km masofada joylashgan. Bu yerlar seroʻt va unumdor joylar boʻlgan. Soʻngra Abdullaxon Dayori Bihisht mozorining gʻarb tomonida masjid, minora va uy qurdirgan. Keyinchalik masjid atrofiga kishilar koʻchib kela boshlagan. Qishloqqa Dehnaviy Abdullaxoniy degan nom berilgan. S.Ayniy oʻz esdaliklarida “Dehnaviy Abdullaxon” deb taʼriflagan. Denov keyinchalik aholisi zich joylashgan qishloqqa aylanadi. Bu yerda 14 -15 guzar boʻlib, bular *Ashurlar, Kallar, Mirzolar, Polvonlar, Arboblal, Junalar, Kosiblar* kabi turli nomlar bilan atalgan.

Denov/Denav/Dehnav/Dehinav nomli qishloqlar viloyatning Buxoro, Jondor, Peshkoʻ, Shofirkon, Vobkent, Gʻijduvon tumanlarida ham mavjud.

Dengizkoʻl – Qorakoʻl tumani (Zarafshon daryosining quyi oqimida) koʻl nomi. *Dengiz* va *koʻl* (“*katta koʻl*”) soʻzlarining birikishidan tashkil topgan (Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati, 188-bet).

Foydalanilgan adabiyotlar

- Adizova N.B. (2020). *Buxoro tumani toponimlari*. Navroʻz.
Oʻzbekiston joy nomlarining izohli lugʻati. (2022). Toshkent.
Бартольд В.В. (1963) *Сочинения*. Москва, Восточная литература.
Дўсимов З., Эгамов Х. (1977). *Жой номларининг қисқача изоҳли лугати*. Ўқитувчи.
Гулямов Я.Г. (1957). *История орошения Хорезма*. Тошкент.
Нафасов Т. (2009). *Қашқадарё қишлоқномаси*. Мухаррир.
Народы Средней Азии и Казахстана. (1962). Москва.
Қораев С. (1978). *Географик номлар маъноси*. Ўзбекистон.
Қораев С. (1970). *Географик номлар маъносини биласизми?* Тошкент.
Радлов В.В. (1893). *Опыт словаря тюркских наречий*. Санкт-Петербург.
Толстов С.П. (1948). *По следам древнехорезмийской цивилизации*. Москва-Ленинград.

MUNDARIJA

Inomjon Azimov	
So‘zboshi	3
Abdulhay Sobirov	
Ona tili taqdiri yo‘lidagi xavotirlar	6
Jo‘liboy Eltazarov	
Til Elning Boridur...	
“Davlat tili haqida”gi qonun amaliyotida uchraydigan achinarli holatlar haqida	13
Murodqosim Abdiyev	
O‘zbek tili terminologiyasi rivojining ba’zi masalalari	25
Inomjon Azimov, Gulbahor Azimova	
O‘zbekistonda arab yozuvi islohoti	30
Bibish Jo‘rayeva, Maftuna Sharipova	
Inson qadr-qimmatini ifodalovchi metaforik maqollar (“Qo‘y” LMG misolida)	37
Yorqinjon Odilov	
Milliy, ultramilliy va baynalmilal til siyosati	42
Bashorat Baxriddinova	
Zamonaviy o‘zbek punktuatsiyasida tartib va xaos	51
Inomjon Ganiyev	
Yo‘l muhandisligida terminologiyani takomillashtirish masalalari	57
Abdurayim Turobov	
Og‘zaki va yozma nutqning lingvistik xususiyatlari	64
Muhayyo Xakimova	
O‘zbek tilida abstrakt sifatlar	68
Ixtiyor Ermatov	
Ekvonimiya va unga yondosh hodisalar xususida	74
Farhad Rahimi	
Dèrext/ derext, daya- ve dire- kelimesinin etimologisi	81

Muyassar Saparniyazova	
O‘zbek ismlari imlosi va izohidagi ayrim munozarali masalalar	86
Mardon Rahmatov	
Murojaat so‘zlari nutq adresatini ifodalovchi vosita sifatida	93
Marhabo Umurzoqova	
Lingvopersonologiya lisoniy shaxs haqidagi ta’limot sifatida	99
Farhod Babadjanov	
Shartnomalarning matn qoliplari	104
Abdullayev Jumanazar	
O‘zbek tilshunosligida sistem-struktur talqinlar, ularning metodologik, grammatik ahamiyati	111
Hamid Yodgorov	
Turkiy tillarda jinsning morfologik usulda ifodalanishi	119
Baurjan Sayfullayev	
Tillar kontaktining ijtimoiy zarurligi va fanda o‘rganilishi (o‘zbek va qozoq tillari misolida)	124
Feruza Jumayeva	
Tobe bog‘lanish: so‘z birikmasi va gap bo‘laklari tahlili (Ona tili darsligidagi qoidalar izohi: ilmiy-amaliy va metodik yondashuv)	137
Zokir Boynazarov	
“Devonu lug‘ati-t-turk” asarida ifodalangan rang atamalarining qiyosiy tadqiqi	145
Ijod Axmedov	
Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboga o‘tish milliy madaniyatimizning yangi bosqichga ko‘tarilishi	151
Muhabbat Saidova	
Innovatsion texnologiyalari asosida yaratiladigan yangi avlod darsligi	155
Husniddin Suyunov, Farhod Nizomov	
Abduqayum Yo‘ldoshevning “Yurakdagi iz” qissasida so‘z qo‘llash mahorati	160

Amira Ibatova

Terminlarning izohli lugʻatlarda lugʻaviy va tushunchaviy jihatdan yoritilishi 166

Maloxat Badalbayeva

Tilshunoslikda favqulodda vaziyatlarning maxsus leksikasini oʻrganishning ahamiyati 172

Oʻrinboy Boboyorov

Tashkilotlarda xizmat yozishmalarining davlat tilida yuritilishida oʻziga xos xususiyatlar va ularga qoʻyiladigan talablar 179

Shuxrat Abdullayev, Oxunjon Abdullayev

Oʻzbek va qoraqalpoq tillarida yangi terminlarning sohalarga doir taraqqiyoti 185

Ashurov Dilmurod, Bayxanova Shoir

Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili (“Alpomish” dostoni asosida) 191

Oybek Nurjanov

Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalarining rivojlanishida etnik va maishiy omillar taʼsiri 200

Nizomiddin Qoʻldashev, Fotima Mahmudova

Frazeologik birliklarda allegorik koʻchimning stilistik xususiyatlari 205

Zaynura Kadirova

Matn tahlilida lingvistik ekspertiza usullarining qoʻllanilishi 211

Sobir Axmedov

Geografik tuzilish, tashqi koʻrinish asosida shakllangan joy nomlari 216

G.Samandarova

Oʻzbek xalq maqollarida sonlarning konseptual va lingvomadaniy xususiyatlari 225

Xurshida Xashimova

Terminologik bazaning yagona elektron platformasini yaratish istiqbollari: texnik terminologiyani standartlashtirishning ilmiy-amaliy asoslari 232

Aziza Eshqurbonova

Dialoglarda murojaat shakllarining pragmatik tasnifi 238